

LINGVISTIK AREAL VA JANUBI-SHARQIY ANDIJON LINGVOAREALI TUSHUNCHALARI TALQINI

Alimbekova Vaziraxon Xalimjon qizi

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20732836>

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik areal va janubi-sharqiy Andijon lingvoareali tushunchalariga izoh berildi. Ushbu arealning boshqa hududlardan farqli bo‘lgan xususiyatlari ochib berildi, hamda fikrlar shevadan keltirilgan misollar bilan dalillandi.

Abstract. This article provides an overview of the concepts of “linguistic areal” and the “south-eastern Andijan linguoareal”. The unique characteristics that distinguish this areal from other regions are highlighted, and the insights are substantiated with specific examples drawn from local dialects.

Kalit so‘zlar: dialekt, sheva, areal, areal-lingvistika, adabiy til.

Keywords: dialect, sub-dialect (sheva), areal, areal linguistics, literary language.

Jahon tilshunosligida dialektologik tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Sheva va lahjalar xususiyatlarining yangicha tahlili va tarixiy evolyutsiyasini teran anglashga oid tadqiqotlar anchagina. Shuningdek, tadqiqotlar muayyan areallar bo‘yicha amalga oshirilishi boshlandi. Aksariyat tillarda sheva to‘g‘risida fikr yuritilishi qiyinlashib qolgan bo‘lsa-da, o‘zbek tili shevalari o‘zining iyerarxik xususiyatini saqlab qolmoqda. O‘zbek tili shevalarga boyligi sababli sof dialektologik tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari mavjud, shunday bo‘lsa-da, endilikda dialektologik tadqiqotlarni areal o‘rganish zaruriyati bor. Buning boisi shundaki, yondosh shevalar, qarindosh tillar, shuningdek, o‘zbek adabiy tilining ta‘sirini turli areallarda turlicha kechadi va shu tariqa shevaning o‘ziga xosligini ta‘minlaydi.

Fikrimizni dialektologiya va areal lingvistikada yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar bilan dalillay olamiz [5, 2019: 17]. O‘zbek tili ko‘p shevali bo‘lib, dunyoning eng baquvvat tillaridan biriga aylandi [6, 2024:32]. Shevalardan adabiy tilga so‘z olish esa o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Har bir sheva o‘ziga xos, bir-birini takrorlamas xususiyatlari bilan ajralib turishi ma‘lum. Bunday o‘ziga xoslikni janubi-sharqiy Andijon shevalarida ham kuzatish mumkin. Mazkur sheva dastlab qipchoq shevalariga mansub bo‘lgan, lekin keyingi rivojlanish bosqichlari, ya‘ni atrof qarluq shevalarining ta‘sirida uning xususiyatlarini o‘zlashtirgan hamda Andijon shevalarining o‘ziga xos arealiga aylangan. Bu o‘ziga xoslikni avvalo leksikada ko‘ramiz. Ayniqsa, tadqiqot ishi olib borilgan arealdagi shevalarning leksik xususiyatlari diqqatni jalb qiladi. Bu esa maxsus tadqiqot ishi yaratilishi zarurligini taqozo qiladi. Janubi-sharqiy Andijon lingvoareali ham o‘zbek tilining bir qismi sifatida o‘ziga xos va adabiy tilda uchramaydigan dialektal so‘zlarning mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot obyekti qilib olingan janubi-sharqiy Andijon lingvoareali bir tarafdin qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegaradosh bo‘lib, bu geografik tutashuv aholi o‘rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar areal tiliga (shevasiga) ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shevalar leksikasini areal jihatdan tadqiq qilish uning xususiyatlarini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi, chunki shevalarni areal lingvistik asosda o‘rganish nafaqat tillarning dialektal bo‘linishi, yondosh shevalararo munosabati hamda tarixini bilish uchun emas, balki shevalar rivojlanishining turli davrlaridagi xususiyatlarini aniqlash, dialektal hodisalarning kelib chiqish sabablariga

oydinlik kiritish, yondosh tillarning o'zbek tiliga ko'rsatayotgan ta'siri va ularning adabiy tilga munosabatini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

Janubi-sharqiy Andijon lingvoareali leksikasi Andijon dialektiga mansub bo'lganligi uchun ham viloyatdagi yondosh shevalar bilan umumiylikka ega. Andijon shevasi ustida S.Ibrohimov va A.Mamatovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar bundan qariyb 50 yil avval bajarilgan bo'lib, o'tgan davrda shevalar to'xtovsiz taraqqiy etib keldi. Qolaversa, bu tadqiqotlarda janubi-sharqiy Andijon lingvoareali leksikasi e'tiborga olingan o'rinlar uchramadi. Demak, janubi-sharqiy Andijon lingvoareali leksikasi bo'yicha tadqiqot Andijon dialektining shu hududini to'lig'i bilan o'rganish imkonini beradi va o'zbek tilining boyligini ushbu kichik areal shevasi orqali ham ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, lingvistik areal termini areal lingvistikaning muhim tushunchasi bo'lib, u til (dialekt) hodisalarining joylashish hududini anglatadi [1, 2023, 30]. "Areal lingvistika"da areallarning bir necha turlari to'g'risida ma'lumot beriladi: tor lokal areal, lokal areal, keng areal, oddiy areal, murakkab areal, bo'lingan areal, gemogen areal, geterogen areal, poliregional areal, regional areal, subregional areal, kosmologik areal, migratsion areal, innovatsion areal [1, 2023, 34-38]. Ushbu maqolada o'rganilayotgan janubi-sharqiy Andijon areali mazkur areallarga mos kelmaydi, balki u mustaqil areal bo'lmay, qarluq lahjasiga tegishli Andijon dialektining tarkibiy qismi hisoblanadi, boshqacha aytganda, A. Jo'rayev tasnifidagi janubi-sharqiy Farg'ona dialektal zonasining bir "kichik areali"ni tashkil etadi [2, 1991, 70]. Bu lingvoarealning asosiy xususiyati uning *tarixan qipchoq lahjasiga oid bo'lganligi va so'nggi yillarda qarluqlashganligidir*. Janubi-sharqiy Andijon lingvoarealiga viloyatning janubi-sharqiy qismi – Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Jalaquduq tumanlari kiradi [3, 1935: 15]. Bu hudud o'zining aholisi, madaniyati, turmush tarzi bilan respublikaning va qisman Andijon viloyatining boshqa hududlaridan ajralib turadi.

Janubi-sharqiy Andijon lingvoarealining shakllanishi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar natijasidir. "...Ko'chib kelgan qarluq, chigil va yag'mo qabilalarining ma'lum qismi Farg'ona vohasida, aniqrog'i, O'zganda, O'sh va uning atroflarida, Andijon viloyati hududida o'rnashib qolgan edilar. Bu etnik guruhlar ushbu hududlarda VIII-IX asrlarda ham yashagan. Vaqt o'tishi bilan bularning ko'pchiligi o'troqlashib mahalliy aholiga ham aralashib ketgan" [4, 1999: 184].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar janubi-sharqiy Andijon aholisi leksikasining o'ziga xosligini ta'minlagan. Shu munosabat bilan mazkur arealning dialektal asosi masalasini hal qilish zaruriyati tug'iladi.

Bu shevalar haqida dastlab ma'lumot bergan professor G'ozim Olim Yunus uning qipchoq shevalari tipiga kirishini ta'kidlaydi, lekin u shevadagi qipchoq shevasining asosiy xususiyatlarini sanamaydi, ya'ni qipchoq shevalaridagidek so'z boshida ž (j) undoshining qo'llanishi, harakat nomining -v/uv/üv affiksi bilan, hozirgi-kelasi zamon fe'lining -žatir affiksi bilan va qipchoq lahjasiga oid boshqa belgilarning yo'qligini hisobga olmagan. To'g'ri, tanlangan shevalarda singarmonizm saqlangan, lekin undan chekingan o'rinlari ham yo'q emas. G'ozim Olim Yunus ko'rsatgan *topolos, ujugo* so'zlari, singarmonizmning 3-bo'g'inda ham qatnashishi, *-nar // nār, -lar // lār, -tar // tār, -dar // dār* affiks variantlari Qoroqantepa (Voroshilov), Çalaquduq, Ajim shevalarida uchramaydi. Tilshunos faqatgina *lak (ul kelā lak – ul kelgan joq)* affiksini fakt sifatida keltiradi, xolos [3, 1935: 19].

Xulosa. G'ozim Olim Yunus tomonidan qipchoq lahjasi deb tasnif qilingan janubi-sharqiy Andijon areali bugungi kunda atrof qarluq shevalar ta'sirida qarluqlashgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 30.
2. Жураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С.70.
3. Ёlazi Alim Junus. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent, 1935. – B. 15.
4. Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 184 .
5. Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. Тошкент: Фан, 2019. – Б. 17.
6. Sobirov A. Andijon dialektal zonasi haqida ba'zi bir mulohazalar // O'zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2024. – B. 32.